

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**USMANOV ZAYNIDDIN BERDIRASULOVICH**

**ISTE'MOL TOVARLARI SAVDOSINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO'LLARI  
(Samarqand viloyati misolida)**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**SAMARQAND–2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economics Sciences**

**Usmanov Zayniddin Berdirasulovich**

Iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.....3

**Усманов Зайниддин Бердирасулович**

Пути совершенствования организационно-экономических механизмов развития торговли потребительскими товарами.....27

**Usmanov Zayniddin Berdirasulovich**

Ways to improve organizational and economic mechanisms of consumer goods trade development.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**USMANOV ZAYNIDDIN BERDIRASULOVICH**

**ISTE'MOL TOVARLARI SAVDOSINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO'LLARI  
(Samarqand viloyati misolida)**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**SAMARQAND-2026**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4369-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.sies.uz](http://www.sies.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdulkarimov Barat-Ali Abdulkarimovich**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Ergashev Raxmatulla Xidirovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Matyakubov Umidjon Raximovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2026 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**M.T.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasini oshirish va ichki bozorlarda raqobat muhitini kuchaytirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, global qiymat zanjirlariga integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Iste'mol tovarlari savdosi infratuzilmasi va logistikasi samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish hajmlari kengayib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining bozor imkoniyatlaridan foydalanish doirasi kengaymoqda. "2024-yilda jahonda iste'mol tovarlari savdosining hajmi 3 trillion dollardan oshdi va bu raqam har yili o'sib bormoqda. Savdo hajmi o'sish sur'ati esa yiliga 7,0 foizni tashkil etmoqda. Savdo balansi va global iqtisodiy integratsiyaning o'zgarish ta'siriga qaramasdan rivojlangan davlatlar AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik iste'mol tovarlari savdo bozorida yetakchilikni saqlab qolmoqda"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish tendensiyalari, iqtisodiy ta'sir kanallari va ularni boshqarish mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish jahon miqyosida ham, milliy iqtisodiyot misolida ham dolzarb va maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda zamonaviy talablarga ko'ra iste'mol tovarlari savdo faoliyatini samarali rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada iste'mol tovarlari savdosini raqamli va innovatsion texnologiyalarga ko'ra rivojlantirish, chakana va ulgurji savdo makonida an'anaviy va elektron savdoni uyg'un rivojlantirish, iste'mol tovarlari savdosi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash, hamda iste'mol tovarlarini sotib olish jarayonida iste'molchilarining munosabatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>2</sup>da: "Respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda har bir hududda yirik ulgurji savdo markazlari, jumladan logistika, muzlatgich, omborxonalarni tashkil etish, yirik tuman va shaharlarda kamida 3 tadan zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish, qishloq joylarda ko'chma savdo nuqtalarini ko'paytirish, aholiga erkin savdoni amalga oshirish imkonini beruvchi chegaraoldi hududlarda savdo markazlarini tashkil etishni nazarda tutish"<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi savdo tarmog'ini hududiy rivojlantirish, iste'mol tovarlari savdosida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda iste'mol tovarlarini sotish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuv va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu jihatdan ushbu dissertatsiya mavzusi o'ta dolzarb hisoblanadi.

<sup>1</sup> <https://unctad.org/news/global-trade>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Fartmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida 2024-yil 16-fevraldagi PF–36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 31-maydagi PF–145-son “Iste‘mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta‘minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta‘sirchanligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 4-apreldagi PQ–110-son “Aholini sifatli iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ–1496-son “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 23-iyundagi PQ–3082-son “Respublika aholisining ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan ishonchli ta‘minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarining ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik olimlar, jumladan Arustamov E.A., Bursev V.V., B.B.Borisova, Grebnev G.M., Ivanov G.G., Krie A., K.A.Raiskiy, Stukanova, I.P, Djon Ferni, A.M.Fridman., O.V.Chkalova., Efimova O.P va boshqa mualliflarning ishlarida o‘rganilgan<sup>3</sup>

Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan B.A.Abdukarimov, D.X.Aslanova, F.B.Abdukarimov, J.R.Zaynalov, I.Ivatov, Q.J.Mirzaev, M.M.Muxammedov, U.N.Normurodov M.E.Po‘latov, M.Q.Pardaev,

---

<sup>3</sup> Arustamov Э.А. Экономика торговли: учебник. – М.: Дашков и К, 2019. – 384 ст; Иванов Г.Г. Экономика торгового предприятия: учебное пособие. – М.: Форум 2022. – 256 с.; Бурцев В.В. Розничная торговля: организация и управление: учебное пособие. – М.: Кно Рус, 2021. – 280 с.; В.В. Борисова. – Ростов н/Д : изд-во РГЭУ “РИНХ”, Бланк И.А. Управление торговым предприятием. – М.: Омега-Л, 2018. – 512 с.; Гребнев Г.М. Организация и технология торговли: учебное пособие. – М.: Экономика, 2018. – 320 с.; Иванов Г.Г. Экономика торгового предприятия: учебное пособие. – М.: Форум, 2022. – 256 с.; Крие А., Жаллэ Ж. Внутренняя торговля: Пер. с фр.–М.; А/О «Прогресс» «Универс» 2005.-192 с.; Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник.-М.:ИВЦ «Маркетинг».2003.с.683.; Стуканова, И.П. Оптовая торговля в системе инфраструктурного комплекса продовольственного рынка: функции и современное состояние И.П. Стуканова // Региональная экономика: теория и практика. – 2009. – № 6 (99). – С. 35-38.; Джон Ферни и др. Принципы розничной торговли. Пер. с англ. Сапциной У.– М.: ЗАО «Олимп – Бизнес», 2008.; Фридман А.М. Экономика предприятий торговли и питания потребительского общества. Учебник. – М.: «Дашков и К» 2008 год., Чкалова О.В. Торговое дело. – М.: Эксмо, 2008 год , Ефимова О.П. Экономика общественного питания. Минск. Новое знание, 2008. с.348. <sup>3</sup>

B.J.Safarov, K.B.Urazov, T.S.Sharipov, kabilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>

Ushbu ilmiy tadqiqotlarda savdo korxonalari faoliyati, rivojlanish xususiyatlari, iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Biroq respublikamizda iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur muammolarni iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ahamiyatligi va to‘liq o‘rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini aniqlashga imkon yaratadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

savdoning xususiyatlaridan kelib chiqib, “savdo”, “iste‘mol tovarlari” va “iste‘mol tovarlari savdosi” tushunchalarining ta‘riflarini takomillashtirish;

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iste‘mol tovarlarini tasniflashning zamonaviy tasnifini ishlab chiqish;

iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirish bo‘yicha jahondagi rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish hamda ularni mamlakatimizda qo‘llash bilan bog‘liq ilmiy tavsiya va takliflar berish;

O‘zbekistonda iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirish holati va tendensiyalari tahlil qilish;

Respublikada iste‘mol tovarlari bozorida savdo tashkilotlar faoliyaning PEST tahlilni o‘tkazish;

---

<sup>4</sup> Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik I – qism, – Toshkent, “Iqtisod-moliya” 2010.; Aslanova D.X. va boshqalar “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik.-T.: “Fan va texnologiyalar”, 2018, 125 bet.; Abdukarimov F.B. “Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari” (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 2011.-156 bet.; Ivatov I. “Savdoda marketing faoliyati”. Monografiya.–T.:TDIU, 2004.–104 bet.; M.Q.Mirzayev va boshqalar. “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: “STAP–SEL MChJ, 2023.; Muxammedov M.M., Pardayev M.Q., Zaynalov J.R., Aslanova D.H. va boshq. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.–T.: “Fan va texnologiyaliya”, 2018, 125–bet.; Normurodov U.N. “O‘zbekistonda savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand: SamISI, 2022 yil 144 bet; Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Urazov K.B. “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” Darslik–T.:Fan va texnologiya, 2019 534 bet.; Safarov B.J. “O‘zbekiston chakana savdosida bozor tizimlarining shakillanishi va ularni tartibga solish” iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati TDIU, 1998 yil.; Sharipov T.S. “Umumiy ovqatlanish korxonalari samaradorligini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish” (Samarqand viloyati misolida) iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati.Samarqand 2010 yil.

iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirishda uch tomonlama sherikchilik munosabatlari asosida sinergetik samarasini aniqlash;

Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari savdosi hajmining 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan savdo korxonalarini tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib savdo korxonalarining rivojlantirishni ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qo'yilgan vazifalarni hal etishda tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, SWOT-tahlili, PEST, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "iste'mol tovarlari savdosi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iste'mol tovarlarini tasniflashning zamonaviy nuqtai nazardan mijozga yo'naltirilgan yondashuvini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

iste'mol tovarlari tanlovi va narx darajasi jihatidan shahar va qishloq hududlarida savdoning rivojlanishidagi keskin tafovutlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va tovarlarni taqsimlash xizmatlari faoliyatini nomarkazlashtirish orqali qisqartirish taklifi asoslangan;

iste'mol tovarlari savdosining samaradorligini oshirish mexanizmi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish kompleks tizimlarini yaratishga qaratilgan axborot-integratsiya yondashuvini amalga oshirish asosida "Mahalla do'konlari" savdo belgisi ostidagi "savdo tashkiloti – mahalla – tovar ishlab chiqaruvchilar" uch tomonlama hamkorligi orqali takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari savdosiga ta'sir etuvchi makro va mikro muhit omillarini hisobga olgan holda savdo hajmining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida iste'mol tovarlari savdosining hozirgi holati SWOT tahlili asosida baholangan hamda rivojlanishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

Samarqand viloyatida faoliyat yurituvchi "Fayz-Baraka Trade Group" MChJ, "Korzinka Discont" MChJ, "Smart Offline System" MChJ, "Orzon" MChJ kabi savdo tashkilotlari savdo faoliyatining qiyosiy tahlili asosida savdo tashkilotlari raqobat afzalliklari aniqlangan;

iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish uchun xavf va imkoniyatlar yaratuvchi omillarning PEST-tahlili asosida respublikada savdoni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari taklif qilingan;

savdo tashkilotlari, mahallalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

"Fayz-baraka trade group" MChJ savdo tashkiloti ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida axborot oqimlari tahlilining tashkiliy-iqtisodiy modeli taklif etilgan;

ekonometrik prognozlarni qo'llash yordamida Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi hamda olingan natijalar manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan amaliyotda qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda mavzu bo'yicha ilmiy loyihalarning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida hamda sohani rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va amaliy tadbirlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "iste'mol tovarlari savdosi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini iste'mol tovarlarini tasniflashning zamonaviy nuqtai nazardan mijozga yo'naltirilgan yondashuvini qo'llash asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Turizm va mehmonxona xizmatlari iqtisodiyoti" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrug'i; ruyxatga olish raqami 237-918). Mazkur tushunchaning mazmunining takomillashtirilishi savdo sohasida "iste'mol tovarlari" "savdo" "savdo xizmatlari" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini kengroq tushunish orqali savdo korxonalarini faoliyati raqobatbardoshligini oshirishda yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini bergan;

iste'mol tovarlari tanlovi va narx darajasi jihatidan shahar va qishloq hududlarida savdoning rivojlanishidagi keskin tafovutlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va tovarlarni taqsimlash xizmatlari faoliyatini nomarkazlashtirish orqali qisqartirish taklifi Samarqand viloyatidagi savdo korxonalarining faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 28-avgustdagi №05-9204-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iste'mol tovarlari tanlovi va narx darajasi jihatidan shahar va qishloq hududlarida savdoning rivojlanishidagi keskin tafovutlarni qisqartirish imkoni yaratilgan;

iste'mol tovarlari savdosining samaradorligini oshirish mexanizmi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish kompleks tizimlarini yaratishga qaratilgan

axborot-integratsiya yondashuvini amalga oshirish asosida “Mahalla do‘konlari” savdo belgisi ostidagi “savdo tashkiloti – mahalla – tovar ishlab chiqaruvchilar” uch tomonlama hamkorligi orqali takomillashtirish taklifi Samarqand viloyatidagi savdo korxonalarining faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 28-avgustdagi №05–9204-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Mahalla do‘konlari” savdo belgisi ostida iste’mol tovarlari savdosini olib boruvchi mahalla savdo shaxobchalarida sotishdan olingan daromadlarni oshishiga, sotilgan tovarlar tannarxinini kamayishiga, yalpi foyda, davr xarajatlari va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga imkon bergan;

Samarqand viloyatida iste’mol tovarlari savdosiga ta’sir etuvchi makro va mikro muhit omillarini hisobga olgan holda savdo hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Samarqand viloyatidagi savdo korxonalarining faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 28-avgustdagi №05–9204-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatidagi savdo korxonalari mahsulotlari hajmini oshirish va rivojlantirish dasturlari bo‘yicha o‘rta va uzoq istiqbol yillarida savdo tashkilotlar rentabelligining 115% oshishga erishish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni aniqlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan 10 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 151 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzuning dolzarbligi, tadqiqotining maqsadi, vazifalari, obekt, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy natijasi, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, uning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Innovatsion iqtisodiyoti sharoitida iste’mol tovarlari savdosini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib iste’mol tovarlari savdosini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mazmuni va nazariy yondashuvlar, iste’mol tovarlari savdosining rivojlanish omillari, shart-sharoitlari va tamoyillari, iste’mol tovarlari savdosini

rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ulardan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar iste‘mol tovarlari savdosi muhim ahamiyatga ega ekanligini, uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi talqini alohida e‘tibor talab etishini ko‘rsatadi. Binobarin hozirda butun dunyoda iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lishiga qaramasdan nazariy qarashlar turlicha saqlanib qolmoqda.

Tafovutlar nafaqat iste‘mol tovarlari tavsifi va tasnifida balki, uning savdosini tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq jarayonlarda ham ko‘rinadi. Jumladan, birgina savdo tushunchasining o‘ziga berilgan o‘nlab ta‘riflarni iqtisodiy adabiyotlarda uchratishimiz mumkin (1-jadval). Xuddi shunday holatni iste‘mol tovarlari tushunchasi talqinida ham ko‘rishimiz mumkin.

### 1-jadval.

#### “Savdo” tushunchasiga xalqaro, rus va o‘zbek iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan ta‘riflari<sup>5</sup>

Olmlar	Ta‘rif matni	Olingan manbalari
Alfred Marshall	Savdo-bu tovarlar va xizmatlar ayirboshlash orqali iqtisodiy qiymat yaratish jarayonidir.	Principles of Economics, 1890
Jean-Baptiste Say	Savdo-bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazish vositasidir.	A Treatise on Political Economy, 1803
David Ricardo	Savdo-bu mamlakatlar o‘rtasida mutlaq yoki nisbiy ustunlik asosida amalga oshiriladigan mahsulot ayirboshlash jarayonidir.	On the Principles of Political Economy and Taxation, 1817
Lukasevich I. Ya.	Savdo-bu ishlab chiqarish va iste‘mol orasidagi bog‘lovchi zanjir bo‘lib, mahsulotlar bozorga chiqariladi va realizatsiya qilinadi.	Osnove renochnoy ekonomiki, 2015
A. Gryaznova	Savdo-bu bozor munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy shakli, u mahsulotlar harakatini va iste‘molchiga yetkazilishini ta‘minlaydi.	Ekonomicheskaya teoriya, 2018
A.B.Abdukarimov	Savdo-birinchidan, tovarlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik aloqalar va tovar ayirboshlash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni anglatadi; ikinchidan, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida mustaqillashgan savdo korxonalari majmuasidir.	A.B.Abdukarimov Ichki savdo iqtisodiyoti.: darslik T.: “Iqtisod-moliya” 2010 yil 42 bet
K.B.Urazov	Savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. U ishlab chiqarish sohasini iste‘mol sohasi bilan bog‘lovchi bo‘g‘indir.	K.B.Urazov, S.V.Vaxidov “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” Darslik Toshkent-2011 yil 381b
A. G‘ulomov	Savdo-ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorda sotish, ularni ayirboshlash orqali qiymat yaratish jarayonidir.	Makroiqtisodiyot, T.: Iqtisodiyot, 2018
M. Xasanov	Savdo-tovarlar va xizmatlar iste‘molchi qo‘liga yetib borguncha bozor orqali harakat qiladigan iqtisodiy jarayondir.	Mikroiqtisodiyot asoslari, T.: “Fan va texnologiya”, 2019

Mualliflik yondashuvga ko‘rra tadqiqotda iste‘mol tovarlariga insonlar ehtiyojlarini qondirishi uchun ishlab chiqarilgan moddiy va nomoddiy mahsulotlar majmuasi sifatida qarash maqsadga muvofiqligi e‘tirof etilgan. Iste‘mol tovarlari tushunchasi iqtisodiy fanlar rivojlanishining ilk bosqichlarida shakllana boshlagan

<sup>5</sup> Ko‘rsatilgan manbalar asosida muallif ishlanmasi.

bo'lib, u inson ehtiyojlarini qondiradigan va to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga mo'ljallangan mahsulotlar sifatida izohlanadi.

Iste'mol tovarlari savdosi-bu oddiy almashuv jarayoni emas, balki u ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi ko'prik, bandlik va daromad manbai, ijtimoiy infratuzilmaning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Unga nisbatan turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, barchasi savdoning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini e'tirof etadi.

Nazariy tadqiqotlar doirasida savdo xizmatlari tushunchasiga ham mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Savdo xizmatiga-iste'molchilar va sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni vujudga kelishi, shuningdek mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan savdo korxonalarini faoliyati sifatida qarash maqsadga muvofiqligi asoslangan. Ishda, iste'mol tovarlarini to'g'ri tasnif etish bir qator nazariy va amaliy muammolarga yechim ekanligi, tasniflash bir necha ketma-ket pog'onalardan iborat bo'lishi isbotlanib, iste'mol tovarlarini quyidagicha zamonaviy tasniflash taklif etilgan (2-jadval).

**2-jadval.**

### Iste'mol tovarlarini zamonaviy tasnifi<sup>6</sup>

	Tovar turlari	Tavsifi
Iste'mol maqsadiga ko'ra.	Asosiy tovarlar.	Kundalik ehtiyoj uchun doimiy xarid qilinadigan mahsulotlar (non, sut, gigiena vositalari).
	Tanlov asosidagi tovarlar.	Xaridor tomonidan solishtirish orqali tanlanadigan mahsulotlar (kiyim-kechak, mebel).
	Prestij tovarlar	Qimmatbaho, imidj yoki ijtimoiy mavqega yo'naltirilgan mahsulotlar (brendli kiyimlar, zargarlik).
	Favqulodda tovarlar.	Favqulodda holatlarda xarid qilinadigan mahsulotlar (dori-darmon, tibbiy vositalar).
Jismoniy shakliga ko'ra.	Moddiy tovarlar.	Ko'z bilan ko'rib qul bilan ushlanadigan mahsulotlar.
	Nomoddiy tovarlar.	Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan, qul bilan ushlab bo'lmaydigan mahsulotlar.
Savdo usuliga ko'ra.	An'anaviy tovarlar.	Odatdagi do'konlarda sotiladigan mahsulotlar.
	Raqamli tovarlar.	Internet orqali sotiladigan mahsulotlar (e-book, onlayn xizmatlar).
	Gibrid tovarlar.	Offlayn va onlayn savdo orqali realizatsiya qilinadigan mahsulotlar.
Iste'mol davomiyligiga ko'ra.	Tez iste'mol qilinadigan tovarlar.	Qisqa muddatda iste'mol qilinadigan, tez-tez xarid qilinadigan mahsulotlar (ichimliklar, shirinliklar).
	Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar.	Uzoq vaqt xizmat qiladigan mahsulotlar (maishiy texnika, mebel).
Innovatsion darajasi bo'yicha.	An'anaviy tovarlar.	Ko'p yildan beri mavjud bo'lgan, innovatsiyalardan xoli mahsulotlar.
	Innovatsion tovarlar.	Yangi texnologiya, dizayn yoki funktsionallik bilan yaratilgan mahsulotlar (aqli soatlar, IT qurilmalar).


Taklif etilayotgan zamonaviy tasniflash modeli orqali iste'mol tovarlarini iste'molchi xatti-harakati, raqamli iqtisodiyot va savdo texnologiyalari asosida guruhlash imkonini beradi va bu yondashuv marketing strategiyalari, logistikani rejalashtirish va bozorda tovarlar harakatini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishida savdo korxonalarining iste'mol tovarlari bilan doimiy ravishda ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Shu mantiqiy talqin asosida ishda

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

chakana savdo tarmog'ini iste'mol tovarlari bilan uzluksiz ta'minlashning bir qator modellari o'rganilgan va iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish omillari asoslangan.

Iste'mol tovarlari savdosining rivojlanish omillari-bu savdo hajmining, sifati va samaradorligini oshishiga ta'sir qiluvchi asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar yig'indisidir.



### 1-rasm. Iste'mol tovarlari savdosining rivojlantirish omillari<sup>7</sup>

Ishda iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish borasidagi bir qator yondoshuvlar, rivojlangan davlatlar tajribalari o'rganilib, hozirgi taraqqiyot bosqichida iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirishning mijozga yo'naltirilgan yondoshuvi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Mijozga yo'naltirilgan yondashuv - bu inson (yoki tashkilot) o'z faoliyatida asosiy e'tiborni mijozning ehtiyojlari, qiziqishlari va qoniqishiga qaratadigan usuldir. Bu yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi.


- mijoz ehtiyojlarini o'rganish;
- sifatli xizmat ko'rsatish;
- mijoz fikrini inobatga olish;
- uzoq muddatli munosabat o'rnatish.

O'zbekistonda iste'mol tovarlari savdosini rivojlanish tendensiyalari bo'yicha qo'yilgan muammolar yechimi jahon mamlakatlarining global savdoni rivojlanish indeksi asosida ushbu sohada eng rivojlangan mamlakatlarni belgilash va ularning asosiy strategik yo'nalishlarini aniqlash va tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini belgilashda ishlatilishi mumkin. Iste'mol tovarlari savdosini samarali tashkil etib raqobat ustunligiga erishishning xorijiy tajribalaridan foydalanish iste'mol tovarlari savdosi jarayonini tizimli tahlil qilish, interpretivistik va pozitivistik yo'nalishlarni qo'llab, uni samarali tashkil etish yo'llaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Iste'mol tovarlari savdosini rivojlanishi bo'yicha ilg'or davlatlarni asosiy yo'nalishlarini o'rganishda va baholashda global chakana savdoni rivojlanish indeksi bo'yicha tanlangan mezonlar asos sifatida qabul qilinadi. Jahon va milliy bozorlarda globallashuv va integratsiya jarayonlarining hamda raqobatning kuchayishi iste'mol tovarlari savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalariga innovatsiyalarni faol joriy etishni rag'batlantirmoqda.

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda iste‘mol tovarlari savdosining rivojlanish holati, tendensiyalari va unga ta‘sir etuvchi omillar”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada iste‘mol tovarlari savdosini rivojlantirish holati va tendensiyalari tahlil qilingan, iste‘mol tovarlari bozorida savdo tashkilotlari faoliyatining PEST tahlili asosida Samarqand viloyatida iste‘mol tovarlari bozorida talabning shakllanish xususiyatlari o‘rganilib, mintaqada iste‘mol tovarlari savdosini yanada rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda chakana savdo aylanmasi 31,2 million AQSh dollarini (qiyoslash uchun: Rossiyada-553,2 million dollar, Qozog‘istonda-48,8 million dollar, Belarusda-26,5 million dollar) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oylik chakana tovar aylanmasi 84,1 AQSh dollarini tashkil etdi. 2024-yilda so‘nggi 15 yil ichida ilk bor ichki savdo tuzilmasida ulgurji savdoning ulushi chakana savdo ulushidan oshdi. Bu esa mamlakatda ishbilarmonlik faolligining o‘shishi va nooziq-ovqat tovarlariga bo‘lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Savdo sohasining raqamlashuvi bilan bir qatorda, davlat tomonidan savdoni rag‘batlantirish, tadbirkorlik uchun berilgan imtiyoz va preferensiyalar, aholi daromadlari darajasining oshishi, savdoda innovatsion texnologiyalarning jadal joriy etilishi, internet qamrovining kengayishi va smartfon orqali mobil ilovalardan foydalanish darajasining o‘shishi, an‘anaviy savdoning innovasion shaklga transformatsiya bo‘lishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘ldi.



## 2-rasm. O‘zbekistonda ichki savdo hajmlarining dinamikasi mlrd so‘m<sup>8</sup>

Koronavirus pandemiyasiga qadar chakana va ulgurji savdo sohalarida o‘rtacha o‘shish sur‘ati 10% atrofida saqlanib kelgan. Biroq mamlakat iqtisodiyotida to‘liq lokdaun joriy etilgandan so‘ng, o‘shish sur‘ati 2019-yildagi 2,4% dan 25,9% gacha oshib ketdi. Oxirgi besh yil ichida savdo hajmining qariyb 10 barobarga

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ortishi, avvalo, elektron tijoratning rivojlanishi va ayrim biznes-jarayonlarning raqamli makonga ko‘chishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu savdo sohasida tub burilish yasadi va uni gibril formatga o‘tkazdi. Xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli biznes-jarayonlarning tobora ko‘proq raqamli makonga jalb etilishi, chakana va ulgurji tovar aylanmasining o‘shishini tezlashtirmoqda - bu o‘shish yiliga 24–33% oralig‘ida kuzatilmoqda.

So‘nggi 5 yilda O‘zbekistonda savdo va xizmatlar hajmining mutlaq o‘shishiga qaramay, respublikada xizmat ko‘rsatish sohasida savdo ulushining pasayishi kuzatilmoqda. 2020-yilda savdo ulushining yuqori bo‘lishi pandemiyadan so‘nggi sharoitlarda onlayn savdoning ahamiyatining oshib borishi bilan izohlanadi, chunki boshqa iqtisodiy tarmoqlar lokdaundan keyin tiklanish jarayonida edi. Keyingi yillarda esa boshqa xizmatlar sohasining ulushi o‘shishi natijasida 2024-yilga kelib savdo ulushi 18,3%ga tushdi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmidagi moliya xizmatlari ulushining o‘shishi uni 3,5% ga oshishiga olib keldi, shu bilan birga savdo xizmatlari va u bilan bog‘liq ovqatlanish va turar joy xizmatlari ulushning 2,3% ga teng o‘shishini ta‘minladi

### 3-jadval.

#### 2019–2024 yillarda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish va savdo sohasining rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>9</sup>

№	Ko‘rsatkichlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so‘m	219 978,5	284 388,1	366 891,0	648 806,4	818 428,3
2.	Savdo xizmatlari hajmi, mlrd so‘m	57572,7	72483,2	89816,2	125995,0	149599,8
3.	Jami ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari ulushi,%	26,2	25,5	24,5	19,4	18,3
4.	Savdoning o‘shish sur‘atlari,% (zanjir usuli)	118,1	125,9	123,9	140,3	118,7
5.	Ulgurji savdo aylanmasi, mlrd.so‘m	128741,7	183112,3	258444	330062,9	455 343,20
6.	Chakana savdo aylanmasi, mlrd.so‘m	199518,8	216694,6	270687,2	330448,1	403 431,80

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda zamonaviy savdo sohasining rivojlanishida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:


2020-2024-yillarda xizmatlar va savdo sohasi barqaror o‘ydi. Umumiy xizmatlar hajmi 3,7 barobar, savdo xizmatlari esa 2,6 barobar oshdi. Shu bilan birga, savdo xizmatlarining jami xizmatlardagi ulushi 26,2% dan 18,3% gacha kamaydi, bu xizmatlar sohasida diversifikatsiya kuchayganini bildiradi. Savdo o‘shish sur‘atlari yuqori bo‘lib, ayniqsa 2023-yilda keskin oshgan, 2024-yilda esa biroz barqarorlashgan. Ulgurji savdo 3,5 barobar, chakana savdo esa 2 barobardan ko‘proq o‘shib, ichki bozor va savdo infratuzilmasi kengayotganini ko‘rsatadi.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Respublikada iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish istiqbollarini belgilash va savdo tashkilotlarining raqobatbardoshlik strategiyalarini ishlab chiqish, raqamlashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda biznes-jarayonlarni samarali transformatsiya qilish, shubhasiz, zamonaviy iste'molchilar tanlovini tahlil qilishni taqozo etadi. An'anaviy savdoda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv-uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining, xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida raqamli makondagi o'zaro munosabatlarning innovasion shakliga o'tishning asosiy shartidir.

Shu maqsadda google.doc ilovasi yordamida iste'molchilar tanlovini sosiologik tadqiq qilish ishlari olib borildi. Onlayn so'rovnomada 260 nafar respondent ishtirok etdi, so'rovnomada 26 ta savol keltirildi. Respondentlar tomonidan savdo tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha eng keng tarqalgan taklif-bu assortimentni kengaytirish bo'lib, 100 nafar ishtirokchi (38,4%) ushbu yo'nalishni muhim deb topgan. Shuningdek, tovar va pul ko'rinishidagi chegirmalar, doimiy mijozlar uchun bonuslar va aksiyalar kabi rag'batlantirish dasturlarining joriy etilishi 87 nafar respondent (33,4%) tomonidan qayd etilgan. Savdo zallarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning samimiyligi va iliq munosabati ham muhim ijobiy yo'nalish sifatida 52 nafar respondent (20%) tomonidan alohida ta'kidlangan.


So'rovda ishtirok etganlar orasida oilaviy respondentlar ham bo'lgani sababli, ular bolalar uchun o'yin maydonchalari tashkil etish taklifini ham bildirishgan. Qolgan javoblar orasida 4% respondent tovar narxining aniq ko'rsatilishi, qishloq hududlaridagi savdo tashkilotlari uchun mobil ilovalar va naqdsiz to'lov imkoniyatlarini yaratish zarurligini ta'kidlashgan (3-rasm).



**3-rasm. An'anaviy do'konlar faoliyatni yaxshilash bo'yicha respondentlar tomonidan berilgan takliflar<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> Muallif tomonidan savdo korxonalarida o'tkazilgan so'rovnomalar asosida ishlab chiqilgan.

Iste'mol tovarlarini an'anaviy usulda va elektron savdo orqali xarid qilishdagi uy xo'jaliklari xarajatlarini taqqoslash onlayn savdo hajmining bosqichma-bosqich o'sib borayotganini ko'rsatadi. Bu o'sish, ayniqsa, savdo maydonchalariga ega bo'lmagan marketpleyslarda ham, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda keng faoliyat yuritayotgan do'konlarda ham birdek yaqqol namoyon bo'lmoqda. So'rovda qatnashgan respondentlarning katta qismi har oyda an'anaviy do'konlarda iste'mol tovarlariga o'rtacha 100 AQSh dollarigacha mablag' sarflashlarini bildirishgan (54-68%). Shu bilan birga, 100-300 AQSh dollari oralig'ida xarid qiladiganlar ulushi 27,5% ni tashkil etgan (3-rasm).



**4-rasm. Iste'molchilarning bir oylik xaridlarga o'rtacha sarflari<sup>11</sup>**

So'rovda ishtirok etgan respondentlar orasida 6,8 foizni tashkil etuvchi moliyaviy jihatdan eng yaxshi ta'minlangan uy xo'jaliklari oyiga 500 AQSh dollaridan ortiq mablag'ni iste'mol tovarlariga sarflashga tayyor bo'lib, asosan an'anaviy savdo shakllarini afzal ko'rishda davom etmoqda. Biroq, onlayn xaridlar an'anaviy savdodan unchalik ortda qolmayapti. Bu esa elektron tijoratning mamlakatda barqaror rivojlanish istiqbollari ega ekanini ko'rsatadi.

Shu tariqa, o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari tahlili O'zbekistonda iste'mol tovarlari savdosini rivojlantirish istiqbollari raqamli texnologiyalarni xizmat yaratish zanjiriga joriy etish, elektron tijoratning iste'molchilar tanloviga ta'sirining ortishi va uning raqobatbardosh ustunliklarini an'anaviy savdo modellariga integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy platformalar, internet tarmoqlari va messenjerlar bilan samarali uyg'unlik orqali keng auditoriyani qamrab olish imkonini yaratadi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan savdo korxonalarida o'tkazilgan so'rovnomalari asosida ishlab chiqilgan.

#### 4-jadval.

### Iste'mol tovarlari savdosi vakillari tomonidan ilgari surilgan muammolar va ularning ehtimoliy yechimlari<sup>12</sup>.

Toifa	Asosiy muammolar	Ehtimoliy yechimlar
1.Oziq-ovqat mahsulotlari importining yuqori ulushi	Ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari (mavsumga to'g'ri kelmaydigan mevalar, go'sht, yog', bolalar oziq-ovqati) importning yuqori darajasi saqlanmoqda.	Agrosanoat komplekslarni rivojlantirish, issiqxonalarini qo'llab-quvvatlash, qayta ishlash jarayonlarini mahalliyashtirish.
2.Logistika va saqlash	Sovutkich omborxonalarining yetishmasligi va logistika muammolari tez buziladigan tovarlarni saqlash muddatlarining buzilishiga olib kelmoqda.	Hududlarda agroxablar va logistika markazlarini tashkil etish hamda sovutkich zanjiriga sarmoya kiritish zarur.
3.Narxlarning oshishi va inflyasiya	Inflyasiya va mavsumiylik sababli asosiy mahsulotlar (non, tuxum, yog') narxlarining keskin ko'tarilishi kuzatiladi.	Barqarorlik fondlarini joriy etish va kontrakt asosida fermerlikni rivojlantirish zarur.
4.Sifatsiz tovarlar	Bozorlarda markirovkasiz, muddati o'tgan hamda sanitariya nazoratidan o'tmagan mahsulotlar uchrab turadi.	Sanitariya xizmatlari orqali nazoratni kuchaytirish va sifatni raqamli kuzatish tizimlarini joriy etish lozim.
5.Shahar va qishloqda savdo rivojlanish darajasining farqlanishi	Hududlarda mahsulot tanlovi shaharga nisbatan kam va narxlar balandroq.	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va taqsimlovchi markazlarni markazdan tashqariga chiqarish (detsentralizatsiya qilish) zarur.

Mazkur jadval iste'mol tovarlari savdosidagi tizimli muammolarni va ularning iqtisodiy yechimlarini kompleks tarzda ifodalaydi. Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, birinchidan, oziq-ovqat importining yuqoriligi ichki ishlab chiqarishning yetarli rivojlanmaganini bildiradi va import o'rnini bosuvchi siyosatni kuchaytirishni talab etadi. Ikkinchidan, logistika va saqlash infratuzilmasidagi kamchiliklar tovar yo'qotishlari va narx beqarorligiga olib keladi, bu esa samarali taqsimot tizimini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Uchinchidan, inflyasiya va narxlar o'zgaruvchanligi bozor barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, shu bois davlatning tartibga soluvchi mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. To'rtinchidan, sifatsiz mahsulotlar mavjudligi nazorat tizimlarining yetarli emasligini anglatadi va raqamli monitoringni joriy etishni talab etadi. Beshinchidan, hududlararo savdo tafovutlari iqtisodiy nomutanosiblikni yuzaga keltirib, detsentralizatsiya va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni taqoza etadi.

<sup>12</sup> Manba Muallif tomonidan tuzilgan.

**Samarqand viloyati savdo tashkilotlari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari** <sup>13</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar	“Fayz-Baraka Trade Group” MChJ	“Korzinka.uz” (Urgut filiali)	“Orzon”	“Smart offline system” MChJ
Sof foyda, ming so‘m	2023	152 803,0	32 259,6	8 440,0	861,4
	2024	544 629,0	43 568,4	36345,6	2321,5
Savdo rentabelligi, %	2023	17,3	21,6	14,9	11,2
	2024	19,5	23,0	16,0	11,3
Asosiy vositalar rentabelligi, %	2023	3,2	4,9	3,1	2,3
	2024	3,7	5,8	3,6	2,6
Asosiy fondlar qaytimi, so‘m	2023	18,4	1,43	1,16	1,12
	2024	19,0	1,58	1,24	1,17
Joriy likvidlik koeffitsienti	2023	2,49	3,9	2,4	1,7
	2024	2,66	4,1	2,7	1,9
Mutlaq likvidlik koeffitsienti	2023	0,21	0,43	0,38	0,20
	2024	0,25	0,50	0,42	0,21
Veb-sayt yoki mobil ilovaga tashriflar (millionlab tashriflar)	2023	-	0,23	0,13	0,23
	2024	-	0,36	0,34	0,33

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida 2023-2024-yillarda savdo korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini quyidagicha tahlil qilindi. Avvalo, sof foyda dinamikasi barcha korxonalarda ijobiy o'sishni ko'rsatadi. Xususan, “Fayz-Baraka Trade Group” MChJda foyda keskin oshib 152 803,0 ming so‘mdan 544 629,0 ming so‘mga, yuqori darajadagi moliyaviy samaradorlikni namoyon etgan. “Orzon” korxonasida ham sezilarli o'sish kuzatilib, bu uning bozor faolligi keskin ortganini bildiradi. Qolgan korxonalarda esa pastroq sur'atlarda bo'lgan.

Savdo rentabelligi ko'rsatkichlari barcha savdo korxonalarida oshgan masalan, “Korzinka.uz” 21,6% dan 23,0% gacha, bu savdo operatsiyalarining samaradorligi yaxshilanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, “Smart offline system”da o'sish minimal bo'lib, rentabellik darajasi pastligicha qolmoqda.

Asosiy vositalar rentabelligi va fondlar qaytimi ham ijobiy dinamikaga ega. Bu asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi ortayotganini bildiradi. Ayniqsa, “Fayz-Baraka Trade Group”da fondlar qaytimi yuqori darajada bo'lib, asosiy vositalardan intensiv foydalanilayotganini ko'rsatmoqda.

Likvidlik ko'rsatkichlari joriy va mutlaq barcha korxonalarda me'yoriy darajada va o'sish tendentsiyasiga ega. “Korzinka.uz”da joriy likvidlikning 4,1 ga yetishi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati yuqori ekanini bildiradi. Mutlaq likvidlikning oshishi esa pul mablag'lari ulushi ortganini ko'rsatadi.

Raqamli faollik veb-sayt va mobil ilovaga tashriflar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatiladi. “Korzinka.uz” va “Orzon”da tashriflar sonining keskin ortishi

<sup>13</sup> Ko'rsatkichlar muallif tomonidan savdo tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari asosida hisoblab chiqilgan.

raqamlashtirish va onlayn savdo kanallarining rivojlanayotganini bildiradi. Bu esa kelgusida savdo hajmlarini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining “Iste’mol tovarlari savdosini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari” deb nomlangan uchinchi bobida Iste’mol tovarlari savdosini rivojlantirishda uch tomonlama sherikchilik sinergetik samarasi ta’siri empirik baholangan. Shuningdek, Samarqand viloyatida iste’mol tovarlari savdo hajmining 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan va hududiy iste’mol tovarlari savdosida raqamlashtirish modeli taklif etilgan.

